ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/№ 1,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.01.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova,(PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.01.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, (PhD), доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, (PhD), доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.01.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

AMINOVA DILNOZA
Brending va imij tushunchalarining nazariy tavsifi 7

QODIROV UMARJON AKRAMJON O‘G‘LI
Shonazar Shoabdurahmonov Qo‘qon shevasi xususiyatlari haqida 11

NAZAROVA ZIYODA KATTAYEVNA
Frazeologik birliklarni idiomalardan farqlashning muhim ahamiyati 14

QIYOMIDINOVA NILUFAR QAXRAMON QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarning lingvistik dinamikasi:
evolyutsiya, o‘ziga xoslik va raqamli davr ta’siri 17

BO‘RONOV NAZIM MUSTAFAQULOVICH
Feyk yangiliklarga qarshi kurashishda milliy va xalqaro tajriba 22

MUSURMONQULOV ADHAM ABDURASHID O‘G‘LI
Tilshunoslikda uyadosh so‘zlar lug‘atini
yaratishning maydon nazariyasidagi talqini 27

SOBIROVA FERUZA ISLOMJON QIZI
Saylovoldi dasturlarda nutqiy manipulyatsiya.....30

XOLMATOVA GO‘ZAL BAXODIROVNA
Internet-media ergonimlarining struktur-semantik tahlili
(o‘zbek va ingliz tillarida) 35

ASHUROV BOBIR SHAKIROVICH
Sud-ekspertiza lingvistikasi: nazariy asos va metodologik talqin 38

ROZUMBETOVA XILOLA UMAR QIZI
To‘rtko‘l tumani oykonimlarining leksik-semantik tahlili.....42

TOJIBOYEV ILXOMJON USMONOVICH
Lingvomadaniyatshunoslik antropotsentrik paradigmaning
asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida 47

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA
Halk dessanlarynyň beýik şahyr Magtymguly pyragy
döredijiligine çeperçilik täsiri 49

KODIROVA SAODAT ABDIRAXIMOVNA
Badiiy asarlardagi maqollarning evolyutsiyasi
(“Zarbulmasal” asari misolida) 52

АБДУЛЛАЕВ МАХМУД АХМАТОВИЧ
Таджикское литературоведение о вкладе Садриддина Айни
в изучении узбекско-таджикских литературных связей 55

DUSIMBETOVA NARGIZA BAXTIYAROVNA
Bo‘lajak jurnalistlarning transmedia ko‘nikmalarini shakllantirish
va o‘rgatish jarayonining metodikasi 58

TA’LIM

МАМЕДОВА НАРГИЗА ЗИРАДДИНОВНА
Современные методы преподавания русского языка 58

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 1
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BO'LAJAK JURNALISTLARNING TRANSMEDIA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA O'RGATISH JARAYONINING METODIKASI

Dusimbetova Nargiza Baxtiyarovna,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Xalqaro jurnalistika fakulteti katta o'qituvchisi

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayoni kadrlar tayyorlash tizimiga yangicha yondashish, ta'lim shakllarini optimallashtirish, pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlaydigan texnik resurslar va strategiyalarni qo'llash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar integratsiyasi asosida raqobatbardosh va professional kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda[1]. Bu borada o'qitish mazmunini xalqaro standartlarga tenglashtirish, bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy-madaniy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim o'rin egallamoqda.

Kompetensiya – talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalardan kasbiy, ijtimoiy va akademik faoliyatlarida amaliy foydalana olish qobiliyatini nazarda tutadi. Kompetensiyaviylik esa kompetensiyaga ega bo'lgan subyektning predmet bilan birgalikdagi faoliyatini o'z ichiga oladi.

Transmedia jurnalistikasi – bir nechta platformalarda jumladan, internet, televizor, radio va ijtimoiy tarmoqlar muayyan bir voqea yoki foydalanuvchi bilan o'zaro aloqada bo'lishni ta'minlaydigan yondashuv hisoblanadi. Bu jarayon jurnalistlarga ma'lumotlarni bir necha turdagi formatlarda, masalan, maqola, video, podkast va infografikalar kabi turli shakllarda taqdim etish imkonini beradi. Transmedia kompetensiyasi, jurnalistlar va talabalarga nafaqat texnologik vositalarni ishlatish, balki foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashgan, ijodiy va samarali kontent yaratish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi.

Transmedia kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi asosiy elementlarni hisobga olish lozim:

a) Nazariy tayyorgarlik - talabalar transmedia jurnalistikasi asoslarini, uning tarixiy rivojlanish bosqichlarini va asosiy nazariy tushunchalarini o'rganishi kerak. Bu, kontentning qanday qilib ko'p platformalarda tarqatilishi va qanday tarzda foydalanuvchilarga taqdim etilishi haqida bilimlarni o'z ichiga oladi.

b) Praktik mashg'ulotlar – talabalar uchun turli platformalarda ***(bloglar, video-kanallar, podkastlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar)*** ishlashga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishi kerak. Bu orqali ular o'z kontentlarini yaratish, tahrirlash va tarqatish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

c) Ijodiy yondashuv – talabalar bir nechta turdagi formatlarda ishlash, hikoyani kengaytirish va yangilash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Bu, eng avvalo, auditoriyani jalb qilish, ularni har bir platformada yangi va qiziqarli tarzda qamrab olish imkonini yaratadi.

Texnik ko'nikmalar – turli multimedia vositalari ya'ni grafika, video, audio va ijtimoiy tarmoqlarda kontent tarqatish uchun zarur texnik vositalarni bilish va qo'llay olish ko'nikmalari talab etiladi.

d) Strategik fikrlash – har bir platformada qanday kontent yaratish, qaysi vositalarni samarali ishlatish va qaysi auditoriyani qamrab olishni aniqlash kabi strategik fikrlash ko'nikmalari ham muhim ahamiyatga ega.

Ta'kidlash joizki, leksik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning lingvistik komponentining bir qismi bo'lib, u muloqot qilish, o'z fikrini muloqotning boshqa jihatlari bilan birgalikda turli lingvistik vositalar yordamida ifoda etish qobiliyatidir[2]. Shuningdek, tadqiqot ishimizda terminologik kompetensiya masalalariga to'xtalib o'tilgan. Zero, terminologik kompetensiya leksik kompetensiyaning kichik bir tarmog'i hisoblanadi.

Talabalar uchun transmedia kompetensiyasini rivojlantirishning samarali modelini loyihalashda amaliyotning ahamiyati juda katta. Modelni amalga

[1] Babadjanov S. Pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining mediakomretenligini rivojlantirish texnologiyasi: Avtoreferat. – T., 2018.

[2] Каплун Р.Н., Прокофьева О.Н. Формирование лексической компетенции курсантов на занятиях по иностранному языку в военном вузе // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 4.; URL: https://science-education.ru/ru/article/view?id=28991

oshirish uchun quyidagi yondashuvlar amalga oshirilishi mumkin:

Interaktiv va ijodiy loyiha asosida o‘qitish - talabalar amaliyot davomida transmedia loyihalarini yaratishlari kerak. Masalan, ular o‘z jurnalistik maqsadlariga muvofiq videolar, bloglar yoki ijtimoiy tarmoqlar uchun kontent yaratadilar.

Onlayn kurslar va treninglar – zamonaviy texnologiyalarni o‘rgatish uchun onlayn kurslar va interaktiv treninglar tashkil etilishi mumkin. Bu talabalar uchun transmedia yondashuvlarini o‘zlashtirishni yengillashtiradi.

Bo‘lajak jurnalistlarning transmedia kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni nafaqat o‘qituvchilar va talabalar uchun, balki jurnalistika sohasining o‘zgarishlariga moslashish uchun ham zarur. Talabalar transmedia kompetensiyasini egallaganlarida, ular o‘z ijodiy va professional ko‘nikmalarini yanada kengaytirib, zamonaviy media olamidagi o‘zgarishlarga moslashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Dunyo hamjamiyatida yetakchi o‘rinlarda turuvchi Birlashgan qirollikning **“Kardiff”** universiteti ***(Cardi ff University),*** **“Amsterdam”** universiteti ***(University of Amsterdam),*** Malayziya davlatining **“Sultan Idris Ta’lim”** universiteti ***(UPSI),*** Yaponiyaning **“Josai”** Xalqaro universiteti ***(Josai International University)*** kabi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirishda raqamli texnologiyalar hamda ta’lim veb-resurslarining qo‘llanilishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Hamda, kreativ va tanqidiy fikrlaydigan, kompetentli kadrlar tayyorlashda innovatsion yondashuvlar, raqamli va veb texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini oshirish muammolari tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, axborotlashgan ta’lim muhitida bo‘lajak mutaxassislarni turli madaniy va ijtimoiy munosabatlarga tizimli tayyorlash bo‘yicha zarur shart-sharoitlar yaratish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jurnalistika sohasida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy rivojlantirish samaradorligini oshirishda **integrativ** va **differensial** yondashuvga asoslanish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, kadrlarning kognitiv va ijtimoiy motivlarini rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bo‘lajak jurnalistlarda kasbiy va global kompetensiyalarni rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy mexanizmlarini takomillashtirishda **“Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va chet tillarini chuqur o‘zlashtirish va kadrlarni tayyorlashning yuqori darajasi va sifatini ta’minlash”**[1] kabi muhim vazifalar belgilangan bo‘lib, unda ingliz tilini o‘qitish jarayonida sog‘lom kasbiy raqobatni ta’minlash metodikasini takomillashtirish bo‘lajak jurnalistlar leksik kompetensiyasini shakllantirish zaruratini tug‘dirmoqda.

Jurnalistlar deyarli har kuni insonlar bilan uchrashadi, savol-javob qiladi, ularning bergan javobiga qarab yaxshi ishlarini maqullaydi, bilimini munosib tarzda baholaydi. Kerak bo‘lsa vaziyatga qarab tanqidiy munosabatini beradi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, jurnalistlarning mulohazalarida nisbiylik, subektiv alomatlari mavjud. Kezi kelganda hammaga birdek juda tug‘ri munosabatda bo‘la olmasligi mumkin. Ammo kasbiy mahoratga ega jurnalistning qarshisidagi insonga nisbatan xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli inson ekanligiga barchaning ishonchi komil bo‘lishi lozim. Auditoriyada jurnalist yaxshi ko‘radigan yoki yoqtirmaydigan tinglovchilar bor degan taassurot tug‘ilmasligi lozim[2]. Xullas, obro‘, kasbiy mahorat, insonparvarlik, yuksak darajadagi muomala madaniyati har bir jurnalist uchun zarur xususiyatdir.

Kasbiy mahorat, muomala madaniyati kishining chuqur bilimi, yuksak ahloqiy sifatlari, hayot tajribasi, ilmiy tadqiqot va jamoat ishlarida faol ishtirok etishi tufayli orttirilgan, ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan ta’sir natijasidir. jurnalistik faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra ijodiy xarakterga ega. Malumki, inson oldida biror vokelik yoki muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug‘iladi. jurnalistik faoliyat ana shunday xususiyatga ega ijodkorlikning asosiy mohiyati, jurnalistik faoliyatining maqsadi va xarakteri bilan bog‘liq. Jurnalistik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashini, e’tiqodini, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga bo‘ysungan son-sanoqsiz psixologik masalalar yechish jarayonidir.

Jurnalist kasbiy faoliyatidagi ijodkorlik, kasbiy tafakkur ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo‘llarni qidirib topa bilishda ifodalanadi. Kasbiy tafakkur ijodkorlik manbai bo‘lgan jurnalistik tajriba natjasidir. Jurnalistik kasbiy tajriba muammoli vaziyatlarga juda boy. Ular vositasida ahloqiy-tarbiyaviy ishlarning eng yuqori natijalariga erishiladi, bunda esa kasbiy tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi[3].

Kasbiy tafakkur jarayonida insonda o‘z mutaxasisligi, kasbi to‘g‘risida fikr, mulohaza, g‘oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shahsining ongida tushunchalar, xukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Ijtimoiy hayotda, ta’lim jarayonida insonlar o‘rtasidagi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Elektron resurs:http:www.lex.uz. (murojat sanasi: 08.12.2020))

[2] Qosimova N. Iqtisoslashgan jurnalistika. – T.: O‘zbekiston, 2019.

[3] Teshaboyeva D. M., Toshmuxammedova L. I. Mediya lingvistika va taxrir. – T.: O‘zbekiston, 2019.

aloqa, muloqot va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, o‘z navbatida, bo‘lajak jurnalistlarning kasbiy madaniyatini shakllantirish uchun muayyan didaktik mexanizmlar, jurnalistik faoliyat jarayonni tizimli tashkil etish hamda maxsus pedagogik ta’sir va samarali boshqaruv zarur bo‘ladi[1]. Kasb madaniyati ta’lim jarayonida kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirishning didaktik mehanizmlarini aniqlashning nazariy asosi sifatida kasbiy madaniyatining tuzilishi xususiyatlari namoyon bo‘ladi.

Didaktik mexanizmlar sifatida quyidagi holatlar belgilangan: ta’lim jarayonida kasbiy tafakkur madaniyati tushunchasini kiritish hamda uning jurnalistik faoliyat maqsadini oydinlaashtirish; o‘quv mashg‘ulotlari tuzilmasiga talimning muamoli-qidiruv muammoli vaziyatlar modeli, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etishni bashoratlash holatlarini kasbiy tafakkurni faollashtirish vositalari sifatida kiritish; talim jarayonini subekt-subekt munosabatlari asosida tashkil etish va rivojlantirish[2]. Didaktik vazifalarini hal etishda subekt-subekt munosabatlari asosida kasbiy madaniyatini shakllantirish uchun: kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirishning yetakchi yo‘naltiruvchi kuchi sifatida talabalarning qobiliyatlari, imkoniyatlari hamda intilishlariga tayanish; kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha pedagog-o‘qituvchilar, kasbdoshlar **(guruh talabalari)** bilan hamkorlik; kasbiy madaniyatini shakllantirish borasida talabalarning mustaqil faoliyatini yo‘lga qo‘yish zarur bo‘ladi[3].

Didaktik tizimda fikrlash jarayonini tashkil etishning natijasida kasbiy madaniyatini maqsadli shakllantiriladi, bu esa o‘z o‘rnida jurnalistika yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurti talabalarida kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirish modelini ishlab chiqishga undaydi.

Aslida ta’lim jarayonida talabalar kasbiy madaniyatini rivojlantirishning didaktik modeli tizimli yondashuvga asoslangan bo‘lib, uni amalga oshirish uchun zarur zarur vositalarni tanlash taqazo etiladi[4].

Oliy ta’lim muassasalarining bo‘lajak jurnalistlari kasbiy madaniyatini shakllantirish modeli shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy-madaniy komponentlarni shakllantirish imkoniyatini berib, talaba va pedagoglar faoliyatini tashkil etishning maqsadli ustanovkalari, vazifalari, prinsiplarini qamrab oladi.

Shunday qilib, bo‘lajak jurnalistni tayyorlash jarayonida kasbiy tafakkur rivojlantiriladi, didaktik jarayon davomida kasbiy faoliyat shakllanadi. Ushbu jarayonda shaxsni yaxlit shakllantirish, uni o‘qitish, ijtimoiylashtirish va kasbiylashtirish maqsadga muvofiq[5].

Bo‘lajak jurnalistlar nafaqat o‘z ustida ishlashi, balki kasbiy faoliyatning ma’lum bir turiga egalik qilishi va kerak bo‘lganda uni amalga oshirishi kerak. Talabalar faoliyatini amalga oshirish jarayonida **“kasb”**ni oddiy o‘zlashtirish jarayoni emas, balki mutaxasislikni o‘zlashtirish jarayoni ham zarur.

Kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirish jarayoni o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi faoliyatni tashkil etishning o‘quv jarayonini motivatsion prinsipi, jurnalistik faoliyat jarayonning insonparvar yo‘nalganlik prinsipi, hayot bilan amaliyotning bog‘liqligi prinsipi, jurnalistlarining shaxsiy madaniyati hamda kasbiy madaniyati uyg‘unligi prinsipi, kasbiy yo‘nalganlik prinsiplariga asoslanishi lozim.

O‘quv jarayonini motivatsion ta’minlash prinsipi talabalarga kasbiy vazifalarning yechimini topishni anglashga qaratilgan maqsadli motivatsiyani shakllantirishni nazarda tutadi[6].

Insonparvar yo‘nalganlik prinsipi bo‘lajak jurnalistlarga jamiyat va shaxs maqsadlarining uyg‘unligi, zamonaviy dunyoda insoniy qadriyatlarning ahamiyatini tushunish darajasining shakllanganlik holatni ifodalaydi.

Hayot bilan amaliyotning bog‘liqlik prinsipi bo‘lajak jurnalist prinsiplarda ta’lim jarayonini modernizatsiyalash sharoitida undagi o‘zgarishlarni tushunish va ishtirok etish jarayoni mazmunini ifodalaydi. Bo‘lajak jurnalistning shaxsiy madaniyati hamda kasbiy faoliyati uyg‘unligi prinsipi jurnalist mehnat faoliyatining yuksak kasbiy mahorat asosida uning shaxsiy madaniyati orasidagi munosabat tizimini anglatadi[7]. Bu jarayonda bo‘lajak jurnalistning kasbiy sifatlari sifatida: jurnalistik yo‘nalganlik, jurnalistik refleksiya, jurnalistik tafakkur hamda jurnalistik nazokatning jurnalistning shaxsiy madaniyat sifatlari: xayrixohlik, tarbiyalanganlik[8]. Yuksak axloq, fuqarolik, insonparvarlik, samimiylik sifalari bilan uyg‘unligi asosida jurnalistik tafakkur madaniyatini shakllantirish nazarda tutiladi.

[1] Humoud B. Makrami Motivation and attitude of Saudi University`s learners of English for specific purposes, 2010. – P. 19.

[2] Do‘smuxammedov X. Jurnalistning kasb odobi muammolari. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.

[3] www. Pedagogika.uz

[4] . Медиаобразование. Российская педагогическая энциклопедия. - М., 1993 г.

[5] Mamatova Y., Sulaymonova S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida.–T.: Extremum-press, 2015.

[6] www.ma’rifat.uz

[7] Dudley-Evans, T. & St. John, M. J. Developments in English for Specific Purposes: A multi-disciplinary approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – P. 19.

[8] Muratova N. (2022). Mass Media in State Strategic Programs of InformationSociety Development in Different Countries. International Journal of Social Science Research and Review, 5(4), 56-61.

Har bir mutaxassisning kasbiy tafakkurida, o‘z davrining konseptual va muammoli fikrlash darajasi, pedagogik jarayonlar va hodisalarni tushunishning o‘ziga xos usuli taqdim etiladi, bu esa, o‘z navbatida, zamonaviy jamiyatga xos bo‘lgan munosabat, axloqiy meyorlar, qadriyatlar va boshqa ijtimoiy-psixologik mexanizmlar bilan yaxshilanadi. Didaktik jarayonda talabalarning kasbiy tafakkurini shakllantirish zaruriyati bir qator obektiv holatlar bilan bog‘liq hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim muassasasi bu, avvalambor, talabalar o‘quv-biluv faoliyatining, samaradorligini ta’minlaydigan, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari hamda qobiliyat va istedodlarini rivojlantiradigan mustaqil ijodiy tafakkur maktabi hisoblanadi[1].

Yuqoridagi fikrlar bilan bir qatorda, kasbiy yo‘nalganlik prinsipi bo‘lajak jurnalisning pedagogik faoliyat mazmuniga qiziqishi. Uni amalga oshirishga shaxsiy motivatsiyani shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi[2]. Fikrimiz so‘nggida xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bo‘lajak jurnalistar kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirish uning dunyoqarashini, o‘z kasbini sevishi orqali yetuklik darajasiga intilishini, o‘z borlig‘ini his etishi, Vatan, jamiyat manfaatlari rivoji uchun keraklilik hissini anglashni ifodalaydi.

Bo‘lajak jurnalistlar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning ijtimoiy madaniy mexanizmlarini rivojlantirish, variativ lingvodidaktik ta’minotini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. O‘zbekistondagi jurnalistikaga yo‘naltirilgan oliy ta’lim muassasalari talabalariga ingliz tilini o‘qitishning asosiy maqsadi ingliz tilini mukammal biladigan kadrlar tayyorlash orqali jahon bozoriga raqobatbardosh kadrlarni yetkazishdan iborat[3]. Ushbu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar negizi ma’lum bir sohadagi maxsus so‘zlashish qobiliyatiga, asl matnlarni o‘qiy olish va to‘g‘ri tushunmog‘iga, akademik ma’lumotlardan foydalana olishga, shuningdek, akademik matnlarni yoza olish qobiliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Jurnalistika terminlarning tuzilishi o‘ziga xos bo‘lib, o‘zbek adabiy tili grammatik tuzilishining ichki xususiyatlariga unchalik bog‘liq emas. Sababi jurnalistik terminlarning, asosan, xorijiy tillardan kirib kelganligi bilan izohlanadi. Shu munosabat bilan terminlarning tuzilishi xususiyatlarini aniqlash va ularni talabalarga to‘g‘ri yetkazish tadqiqot vazifalaridan biri sanaladi[4]. Media sohasiga oid terminologik leksikani tarkibiy xususiyatlarini chuqur tahlil etish orqali so‘z yasalishining asosiy konstruksiyalarini aniqlash imkoniyatini yuzaga chiqardik.

Rezyume: Ushbu maqolada bo‘lajak jurnalist kasbiy ko‘nikmasini oshirib borishi, transmedia vositalari bilan ishlashi, ularga yo‘nalish berish metodikasi asoslandi.

Resume: In this article, the method of improving the professional skills of a future journalist, working with transmedia tools, and giving them direction was based.

Резюме: В данной статье обоснована методика совершенствования профессиональных навыков будущего журналиста, работающего с инструментами трансмедиа, и направления их деятельности.

[1] Mo‘minov F. Jurnalistika satsialogisi va psixalogiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

[2] Hutchinson, T. and Waters, A. English for specific purposes: a learning-centred Approach, Cambridge University Press. Cambridge, 2006. – P. 6.

[3] Sergeeva N. Foreign Language Communicative Competence in the Field of Professional Activity: Model and Method Development. Procedia - Social and Behavioral Sciences, 2014. – P. 250–253.

[4] Федоров А.В. Развитие медиакомретентности и критического мышления студентов педагогического вуза. – М.: Информация для всех, 2007.